



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari

2-son (5-jild)

2025

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**№ 2 (5) - 2025**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahamatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imam Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanova – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti; Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizzon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

#### **12.00.00- YURIDIK FANLAR:**

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

#### **13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:**

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqanddavlatuniversiteti.

#### **19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:**

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna- psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasи mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

#### *22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti; Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

### **OAK Ro'yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**"Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari"** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

**07.00.00 – TARIX FANLARI**

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI .....	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSİYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK .....	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN .....	25-29
<i>Хуррамова Саодат Хабибовна</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА .....	30-37
<i>To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI .....	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKİSTON TAJRIBASI .....	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA .....	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI .....	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN .....	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR .....	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdumuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876) .....	79-84

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSİYALARIDAN FOYDALANISH .....	85-89
---	-------

<i>Исламутдинова Дина Файзрахмановна</i>	
РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ	
УЗБЕКИСТАН .....	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSIYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ	
XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI .....	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i>	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH	
YO'LLARI .....	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i>	
CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI	
OSHIRISH YO'LARI .....	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i>	
MULKIY SOLIQQA TORTISHDA XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASI .....	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i>	
UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA .....	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i>	
MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI	
TAKOMILLASHTIRISH .....	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i>	
DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI .....	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i>	
MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i>	
DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH	
MASALALARI .....	161-166
<b>09.00.00 – FALSAFA FANLARI</b>	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i>	
ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING	
ZAMONAVIY IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI .....	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i>	
FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIY YUKSALISH MUAMMOLARI .....	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i>	
BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT	
TARAQQIYOTINING ASOSI .....	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i>	
ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE	
IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG" .....	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i>	
SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI .....	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i>	
IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY	
ASOSLARI VA AHAMIYATI .....	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i>	
ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI .....	203-206
<i>Rasulov Azizzon Mukhamadqodirovich</i>	
AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI .....	207-213
<i>Xasanov Boburjon Xakimovich</i>	
EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI .....	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i>	
MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT .....	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i>	
HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI .....	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI .....	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON STRATEGIYASIDA IJTIMOIY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI .....	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i>	
ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI) .....	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i>	
INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI .....	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i>	
BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA .....	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i>	
XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI .....	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i>	
VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI .....	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i>	
RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI .....	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i>	
YOSHLARDA IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI .....	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i>	
IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI .....	282-285

## **10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i>	
SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLGIK BIRLIK LARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i>	
MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH .....	290-296
<i>Babajanova Nazokat Davronbekovna</i>	
"YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI .....	297-302
<i>Sayidova Shakhrizoda Nasrulloyevna</i>	
RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT" .....	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i>	
TIJORAT HUJJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA .....	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i>	
TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJYI TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI .....	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i>	
SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI .....	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i>	
PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES .....	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i>	
OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI .....	332-338
<i>Babayeva Iroda</i>	
THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING .....	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i>	
USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i>	
JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA) .....	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i>	
TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI .....	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	358-363
<i>Mengboev Azizbek Alijon o'g'li</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI .....	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI .....	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i>	
SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI .....	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i>	
MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI .....	379-385
<b>12.00.00 – YURIDIK FANLAR</b>	
<i>Muhitdanova Firuza</i>	
КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА .....	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i>	
HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI .....	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloyev Shavkat</i>	
INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH .....	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i>	
MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI .....	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxonovich</i>	
JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI .....	420-425
<i>Tuxtashov Sherzod Azimovich</i>	
JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI .....	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i>	
INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMoya QILISH MASALALARI .....	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i>	
BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI .....	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuz Kamolovna</i>	
IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIJ TAJRIBASI .....	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i>	
RAQAMLI ERA DA SUN'iy INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEXNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA .....	448-455
<i>Juraeva Asal</i>	
EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS .....	456-461
<i>Собиров Сайдбек Махмудович</i>	
ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖСПОСОБНОСТИ .....	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i>	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i>	
INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI .....	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i>	
SUN'YIY INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR .....	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i>	
MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI .....	492-500
<i>Yusupov O'ktamboy</i>	
KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI .....	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i>	
XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI .....	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i>	
МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ .....	519-523
<i>Qudratillayev Xazratali Zokirjon o'g'li</i>	
JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI .....	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i>	
SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI .....	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i>	
ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ .....	537-542
<b>13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i>	
AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI .....	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI .....	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAKAT SIFATLARINI HARAKATLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH .....	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH .....	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i>	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI .....	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i>	
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA .....	577-582
<i>Tleuemuratova Abadan Bekbanovna</i>	
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ .....	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i>	
TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR .....	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i>	
OLIY TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLILKLARI .....	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i>	
YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIY KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJY MODELLARI .....	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI .....	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i>	
BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i>	
AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETI NI ISHLASH METODIKASI .....	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI .....	622-625
<i>Elova Sitora Axmatkulovna</i>	
QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI .....	626-629

**Received:** 25 January 2025**Accepted:** 1 February 2025**Published:** 10 Febrary 2025*Article / Original Paper***SOCIAL, ECONOMIC AND CULTURAL LIFE OF ZOMIN DISTRICT  
IN THE 80s OF THE 20th CENTURY****Tuychiyeva Dilnoza,**

doctoral student of KarSU

**Abstract.** This article describes the scope of social, economic and cultural processes that took place in the Zomin district in the 80s of the 20th century. Also, information is provided about the lifestyle of the district's residents during the Soviet regime, their social status, and their participation in cultural activities.

**Keywords:** cotton farming, animal husbandry, "reconstruction", socialist culture, plan, communist ideology, income, state farm, cocooning, cultural-enlightenment, domestic service.

**ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOIY,  
IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI****To'ychiyeva Dilnoza Ikrom qizi**

QarDU doktoranti

E-mail: [dilnozameliyeva35@gmail.com](mailto:dilnozameliyeva35@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada XX asrning 80-yillarida Zomin tumanida kechgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi jarayonlar ko'lami yoritilgan. Shuningdek, Sovet tuzumi davrida tuman aholisining turmush tarzi, ularning ijtimoiy holati, madaniy yo'naliishlardagi ishtiroki haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** paxtachilik, chorvachilik, "qayta qurish", sotsialistik madaniyat, reja, kommunistik mafkura, daromad, sovxozi, pillachilik, madaniy-oqartiruv, maishiy xizmat.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N05>

**Kirish.** XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda kommunistik mafkura asosida yuritilayotgan tizim davom etardi. Bu esa, bevosita, respublika, viloyat va tumanlarda ham o'zining keng qamrovli ta'sirini o'tkazgan. O'sha davr nashrlarida, "tuman mehnatkashlari" deya atalgan aholining, kommunistik partiya syezdlarida qabul qilingan reja va topshiriqlarni so'zsiz bajarishga majburligi achinarlidir. O'rganilayotgan davr arxiv materiallarining tahliliga ko'ra, bitta xulosa, ya'niki, "tuman mehnatkashlari" avvalo, sovet hukumati belgilab bergen majburiyatlarni bajarar, undan keyin esa, o'z ehtiyojlari haqida qayg'urar edi. Xalq orasida, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tarmoqlarda sotsialistik musobaqa avj oldirilgandi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Ish yuritishning bunday tizimi, respublikadagi barcha tumanlar qatori, Zomin tumanida ham tashkil etilgan edi. 80-yillarning boshlarida, Zomin tumani iqtisodiyotining barcha sohalari, ko'rsatkichlarida o'sishga erishilgan. Natijada, 1980-yilgi Zomin tumani milliy daromadi o'tgan yilga nisbatan, 3,9 foizga oshdi. [1;96-b] Albatta, bu "yutuqlar" kuchli bosim va buyruqbozlikka asoslangan islohotlar samarasini edi. Paxta yakkahokimligi siyosati tabiiy-geografik sharoiti tog'li hudud bo'lgan, paxtachilik va sug'orma dehqonchilik sohalariga mos kelmaydigan Zomin tumaniga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Natijada, Zomin tumanining aksariyat qismi, paxtachilik va dehqonchilik maydonlariga aylantirildi. Tumanda faoliyat yuritgan kolxoz (jamoa xo'jaligi) va sovxozi (davlat xo'jaligi) larga davlatga paxta topshirish rejalar belgilanib, bu rejalar "yuksak sotsialistik majburiyat" deb nomlanib, paxta rejasini bajarish qat'iy talab etilgan.

Zomin tumani xo'jaliklarining yana bir qishloq xo'jaligi tarmog'i g'allachilik hisoblanib, 80-yillarda g'alla yetishtirish bo'yicha besh yillik reja topshiriqlari oshig'i bilan bajarilgan. Ammo, g'allachilikni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar ham talaygina bo'lgan. Masalan, sovxozi mutaxassislari g'alla yetishtirishdagi agrotexnik qoidalarga to'liq amal qilmagan. Ekilgan maydonlarda kimyoviy va mahalliy o'g'itlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagan. Sug'orish ishlarida suvdan to'g'ri foydalanilmagan, aksar qishloq hududlarida noqulay ob-havo sharoiti esa, bu jarayonlarni yanada murakkablashtirgan. Davlatga g'alla topshirish rejasi tumanning ayrim xo'jaliklari tomonidan bajarilsa, ayrim xo'jaliklar rejani bajara olmagan.

Tumanda chorvachilikni rivojlantirishda, partiya va hukumat qarorlariga javoban, mahalliy chorvadorlar chorva mollari tuyog'ini ko'paytirish, naslini va mahsulotlarini oshirish borasida birmuncha ishlar amalga oshirgan. Tuman xo'jaliklari tomonidan, rejada ko'rsatilgan raqamlar ortig'i bilan bajarilgan bo'lsa-da, xo'jaliklarda, xususan, Chorvador sovxoziда 2 764 bosh qo'ylar, Zomin sovxoziда esa, 966 bosh qo'ylar kamayib ketgan [2;101-b]. Bu qisqarish yirik shoxli qoramollarda ham kuzatilib, tuman chorva plani — 91 foiz, qo'y va echkilar 72 foizga, yilqichilik esa 32 foizga bajariladi xolos. Bunday salbiy holatlarning ko'p uchrashi, chorvachilikdagi veterinar xizmatlarning to'g'ri tashkil etilmaganligi, xodimlar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar, chorva uchun yem-ozuqaning sifatli emasligi, qurg'oqchil ob-havo sharoitida esa bu holning yanada yomonlashuvi, yem-xashak bilan bog'liq muammolar, xo'jaliklarda naslchilikka yetarli e'tibor berilmasligi asosiy sabablardan edi.

Shunga qaramay, doimiy o'tkazilgan, Zomin tumani deputatlar kengashi sessiyalarida, tumanda ilg'or chorvadorlarning nomlari alohida ta'kidlanib, aholiga namuna sifatida ko'rsatilar va ular sotsialistik musobaqada "g'olib bo'lib", o'z mehnatlari bilan partianing keyingi syezdlariga sovg'a tayyorlagan deb hisoblangan. Ammo, yetishtirilgan go'sht, sut va boshqa mahsulotlar bilan aholini ta'minlash ayanchli ahvolda edi. Sovet davlatining byurokratik boshqaruvi tizimi, mehnatkashlarni farovon yashashini yo'lga qo'yish o'rniga, zimmasiga yuklatilgan majburiyatni qoyillatib bajarishga qayta-qayta urg'u berar edi.

**Muhokama.** XX asrning 80-yillarida Zomin tumani mehnatkashlari pillachilik yo'nalishida ham yuqori natijalarni erishganlar. Jumladan, 1980-yil rejadagi 28 tonna o'rniga 31.3 tonna pilla yetishtirib, davlatga topshirganlar [3;98-b]. Tuman sessiya yig'ilishlarida ijobiy natija ko'rsatayotgan qahramonlarning nomlari alohida ta'kidlanib, ularga mo'l-ko'l "kumush tola" hosilini yetishtirib berayotganligi uchun olqish aytildi. Rag'batlantirilganlarning aksariyati qishloq va tuman Sovetining deputatlari edi. Qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari singari, pillachilikda ham kamchiliklar bisyor edi. Xususan, pillachilikni rivojlantirishda, Zomin tumanida mavjud imkoniyatlari to'liq foydalanilmaganligi qayta-qayta aytilda-da, pillaning ozuqa bazasi hisoblanmish tut plantatsiyalarini ko'paytirish, mavjudlariga agrotexnik xizmatlar ko'rsatish, pillachilarning ish sharoitini yaxshilash, zarur jihoz va asbob-uskunalar bilan ta'minlashga, sovxozi rahbarlari va tuman pillachilik idorasi mutasaddilari yetarli darajada e'tibor bermas, va aksincha doimo diqqati va urg'uni belgilab berilgan rejaning bajarilishiga qaratar edilar.

Nafaqat davlat uchun, balki, aholi uchun ham zaruriy qishloq xo'jalik tarmoqlaridan biri dehqonchilik, sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirish 80-yillarda ham dolzARB edi.

Kartoshka, sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirishda ham zaruriy agrotexnik tadbirlarga e'tibor kam qaratilishi natijasida, tumanda kartoshka hosili keskin kamayib ketdi [4;9-b]. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning kamayib ketishi, sanoatning mahsulotlarni qayta ishslash, sohasiga ham jiddiy zarar keltirgan.

Tuman sanoat korxonalari bu paytda, son jihatdan hali kam bo'lsa-da, mavjudlari zimmasiga yuklatilgan yillik rejani bajarish uchun ishchilar tun-u kun mehnat qilishgan. 1980-yilda tuman bo'yicha yalpi mahsulot ishlab chiqarish 104 foizga bajarilib, rejadagidan 231,8 ming so'mlik mahsulot ko'p ishlab chiqarildi. Tumandagi sanoat korxonalarining aksariyati, qo'l mehnatiga asoslanib, ishchilar rejani bajarish uchun qattiq mehnat qilgan va ular orasida ham sotsialistik musobaqa g'oyalari singdirilgan. Sanoat korxonalari, fabrikalar ko'rinishida bo'lib, ko'pchiligidagi ayollar mehnat qilar, ulardan ortig'i bilan bajarilgan reja talab etilar, ammo, korxonaning ishchilar uchun shart-sharoiti, kamchiliklari, ularni bartaraf etish haqida gapirilmas edi. Chunonchi, tumandagi ayrim korxonalarda yuqoridagi sabablar oqibatida, mahsulot ishlab chiqarish va mehnat unumдорligi XX asning 80-yillari mobaynida sekinlab, pasayib bordi. Yetarli sarmoya kiritilmasligi evaziga, fabrikalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifati ham yomonlashdi. Bu kabi holatlar, yig'ilishlarda ko'p marotaba tanqid qilinib, vaziyat aybdori sifatida "aholi mavjud imkoniyatlardan foydalanmayapti" — degan xulosa berilardi.

Tumanda aholiga maishiy xizmat ko'rsatish quyidagicha tashkil etilgan edi. Savdo sohasi tuman matlubot jamiyatiga qarashli 77 ta do'kon tomonidan amalga oshirilardi. Mazkur do'konlar oylik va yillik rejalarini ortig'i bilan bajargan bo'lsa-da, xalqqa xizmat ko'rsatish kun va davr talabida bo'limgan. Ayrim savdo vakillari "Sovet savdo madaniyati"ni qo'pol ravishda buzib, aholi haqqidan ushlab qolish, ular bilan chiroyli muomala qilmaslik, tovarlarning tartibsiz saqlanishi, do'konlarning sanitariya qoidalariga javob bermasligi kabi holatlar ko'p uchragan. Jumladan, Navoiy qishloq soveti hududidagi Mo'g'ol, Qizilsoy qishloqlari fikrimiz isbotidir [5;24-b]. Savdo tashkilotlarida kundalik ehtiyoj mahsulotlari: un, guruch, choy, sovun va boshqalar yetarli bo'limgan. Mehnatkashlarga maishiy xizmat ko'rsatish idorasi abgor ahvolda, tuman miqyosida qabul punktlari juda kam. Ba'zi qishloqlarda, hatto, sartaroshlik xonalari va poyabzal ustaxonalari ham bo'limgan. Masalan, tumandagi, Chorvador qishlog'ida yuqoridagi misollar o'z aksini topib, aholining maishiy xizmatlarga bo'lgan ehtiyoji qondirilmagan. Navoiy, G'allakor qishloqlarida ham aholiga maishiy xizmat ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilmagan.

XX asrning 80-yillarida tumanda pochta, telefon, telegraf va aloqa xizmatini yaxshilashga doir bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, mavjud telefon aloqalarini avtomatlashtirish ishlari nihoyasiga yetkazilgan, Turkman qishlog'ida yana bir pochta aloqasi bo'limi ishga tushirilgan [6;107]. Sohadagi davlat rejalarini bajarilgan bo'lsa-da, aloqa xizmatlari tuman mehnatkashlarining ehtiyojini qondira olmas edi. Aksariyat xonadonlarda radio va televizor bo'lsa-da, tumanda ularni sozlash xizmatlari yo'lga qo'yilmagan. Aloqa bo'limlarida mutaxassis kadrlarning yetishmasligi, mavjudlarida esa mehnat intizomi to'g'ri shakllantirilmaganligi, Aloqa xizmatining asosiy kamchiliklari edi. Gazeta va jurnallar aholiga o'z vaqtida yetib borishida ham muammolar bo'lgan. Eng achinarlisi, Ikkinchchi jahon urushi qatnashchilari va pensionerlarning nafaqalari vaqtida yetkazilmay qolishi, ularga bo'lgan

e'tiborsizlik natijasi edi. Holat keksa avlod vakillari hayotida iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarardi. Bu kabi holatlarni inobatga olib, rahbarlar o'z hisobotlarida, "Leningrad, Yubiley sovxoziylardagi ATSlar xizmatidan "mehnatkashlar qattiq ranjimoqda", qabilida vaziyatni ifodalar edi [7;113]. E'tiborlisi, holatni tahlil etilsa, aholi erta-yu kech qattiq mehnat qiladi, hamma mehnat mahsuli reja uchun, ammo o'zi uchun zarur sharoitlardan foydalana olmay, shunchaki "qattiq ranjiydi", o'z haqqini talab etib, shaxsiy fikrini ochiq aytib chiqmaydi, chiqolmagan. Faqatgina, tizimdaggi inson omili uchun ijtimoiy xizmatlarning qoniqarsizligidan qiynalganlar.


1984-1985-yillarga kelib, bor-yo'g'i 16 ta savdo markazi, 6 ta kutubxona, 6 ta feldsher-akusherlik punkti, 12 ta umumiy ta'lif maktabi bor edi [8;132-b]. Savdo markazlarida savdo madaniyati tanqidiy fikrlardan so'ng ancha yaxshilandi. Mahsulotlar hajmi va xili kengaytirildi. Kutubxonalarda madaniy-oqartiruv ishlari birmuncha ijobiy tomonga o'zgardi. Maktablarda esa, o'quv-tarbiya ishlarning saviyasi jonlandi. Ammo, maktab o'quvchilarning o'quv jarayonining kattagina qismi, jamoat ishlari: paxta yig'im terimi, pillachilik hasharlari, dehqonchilik yig'imiga sarf etilib, ta'lif uzuq-yuluq holatga tushib qolgan edi. Bu esa, o'quvchilarning uzlucksiz, tizimli, rejali ta'lif olishiga to'sqinlik qilgan. Aholining mehnatga yaroqli qismini rejalarini bajarishga, va bu jarayonda esa, mas'ul mutasaddilar siyosiy-tarbiyaviy ishlarni ham amalga oshirishga e'tibor qaratganlar. Sovet ittifoqi hukumatining tarixiy qarorlari, xalqning xo'jalik va madaniy qurilishida to'g'ri va muhimligi uqtirilib, ijtimoiy iste'mol mollari fondi mantag'larining barchasi tub aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlash, ularga ijtimoiy yordamlar ko'rsatish uchun, ularning turmush farovonligini oshirish uchun sarf etiladi, — deya baralla aytilsa-da, oddiy xalqning birigina nafaqa to'lovlarining o'z vaqtida yetib kelishida ham qator muammolar mavjudligi, qog'ozdagi fikrlarning amaliy isbotini oqlamas edi. Ammo, faqat hisobotlardagina, jarayon ijobiy xulosalar yakun topardi. To'g'ri, ayrim sohalarda, oz bo'lsa-da ijobiy siljishlar bo'lgan, lekin, tuman miqyosida, umumiy holat tahlilga tortilsa, aholining kundalik ehtiyojlarini to'liq qoplanishi uchun islohotlar yetarli bo'lmasligi. Masalan, tuman tibbiyoti, XX asrning 80-yillarida qay ahvolda edi? Tuman partiya komiteti rahbarligi va amaliy yordami bilan, aholiga tibbiyot xizmatini ko'rsatish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, shifokorlarning kasbiy mas'uliyatini oshirish, mehnati intizomiga amal qilish kabi masalalar tuman rahbariyati tomonidan nazoratga olingan. Zomin tumanida XX asrning 80-yillarida, aholiga, jami 495 o'rinni 5 ta kasalxona, 31 ta feldsherlik-akusherlik punktlari, sanitariya-epidimologiya stansiyasi, 2 ta sog'lomlashdirish punkti, sil kasalliklariga qarshi kurash dispanseri, 3 ta tarmoqli dorixona xizmat ko'rsatgan [9;16-b].

Tumandagi har 10 000 kishiga 17 ta shifokor va 50 ta o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimi to'g'ri kelgan. Bu raqamlar o'sha davrdagi respublika va viloyati ko'rsatkichlaridan ancha past edi. Shu bois, yana 9 nafar malakali shifokor va 12 nafar o'rta ma'lumotli xodimlar tumanga boshqa hududlardan olib kelingan. Natijada shifokorlar soni 65 taga, o'rta ma'lumotli xodimlar esa 252 taga yetkazilgan [10;145-b]. Ammo, bu raqamlar ham tuman aholisining salomatligini saqlashga, murojaatlarga o'z vaqtida, tezkorlik bilan javob qaytarishga yetarli emas edi. Ulyanovo shahridagi kasalxonalardan tashqari Yom, Achchi, Beshkubi, Pishag'or, Jaloyir qishloqlarida vrachlik ambulatoriyalari va 32 ta feldsherlik-akusherlik punktlari faoliyat yuritardi. Hisobotlar davrida, tuman tibbiyoti uchun zaruriy mantag'lar ajratildi, deb, ma'lumot kiritilsa-da, aslida tibbiyot muassasalari moddiy-texnik bazasidagi kamchiliklar, bemorlarga xonalar sharoiti, taomlar sifati pastligi, eng yomon holatlardan biri, tez yordam transportining

yetishmasligi, yordamni vaqtida ko'rsatish uchun tizimli grafik ishlamasligi, feldsherlik-akusherlik bo'limlari nazorat qilinmasligi yaqqol ko'zga tashlanardi. Tibbiyot muassasalarida bolalar bo'limining qabul hajmi juda kamligi bois, tuman aholisining aksar qismi bemor bolalarini kasalxonalarga yotqizmay, uyda davolashga urinar edilar. Tabiiyki, uyda yuqori tibbiy-davolash ishlari amalga oshmas edi. Ko'pgina bolalar va ayollar tug'ruq muassasalarida suv, kanalizatsiya, issiq suv ta'minoti, telefon aloqasi, muhandislik-texnik kommunikatsiyalarning boshqa turlari mavjud emas edi. Dori-darmon masalalarida ham yetishmovchiliklar bo'lgan. Tibbiyotda mavjud muammolarni hal etish uchun, sovxoz, korxona va tashkilot rahbarlari homiylik qilishi ta'kidlangan. Ulyanovo shahar va qishloq sovetlarining ijroiya qo'mitalariga tibbiyot muassasalaridagi masalalarni hal etish vazifasi yuklangan.

XX asrning 80-yillari Zomin tumani hududida maktabgacha ta'lim muassasalari soni, aholi ehtiyojiga nisbatan juda kamchilikni tashkil etib, ulardagi yaratilgan shart-sharoitlar holati talab darajasida emas edi. Oziq-ovqatlar sifati, xonalar issiqligi, ta'lim-tarbiyaning zamonaviy emasligi va bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish uchun esa, yetarli mablag'lar yo'naltirilmaganligi ta'kidlangan. Maktablarda ham holat quvonarli emas edi. Zomin tumani Xalq Maorifi tomonidan berilgan yozma arxiv hujjati [11;337-b] tahliliga tayanib, ma'lumotlar keltiradigan bo'lsak, o'quvchilarining ta'lim oladigan vaqtida maydonlarida mehnat bilan o'tardi. Masalan, Ishlab chiqarish brigadalarida, ya'ni bog'dorchilik, sabzavotchilik, quyonchilik, pillachilik sovxozlarida 1, 2, 3, 4, 5, 6, 8, 9, 16, 21, 31, 42, 47, 61, 63 jami 15 ta maktab o'quvchilaridan jami 400 nafar va ularga rahbarlik qilish maqsadida 24 ta o'qituvchi jalb qilingan edi. Dam olish va mehnat lagerlari deb nomlangan bu kabi tadbirdarda 28, 47, 32, 42, 61, 63-maktablardan, jami 706 nafar o'quvchi jalb etilgan [12;331-b]. 1983-yilga kelib, Zomin tumanida o'qituvchilar, maktab va o'quvchilarining soni va holatini quyidagi jadval asosida tasavvur qilish mumkin.

1983-yil Zomin tumani Xalq ta'limi muassasalarining statistik tahlili



■ Jami o'qituvchilar ■ Maktablar soni ■ O'quvchilar soni ■ Xodimlar soni

Tumanda jami 1 153 nafar o'qituvchi, 54 ta maktab, 16 620 nafar o'quvchi va 54 nafar vazifasiga ko'ra xodimlar bo'lgan [13;9-b]. Raqamlardan ko'rinish turibdiki, tumandagi maktablarda o'quvchilar soni ko'p bo'lishiga qaramay, ularga ta'lim beruvchi o'qituvchi-pedagoglar kamligi, ularning oz qismi oliy ma'lumotliligi, o'rta-maxsus toifaga ega o'qituvchilarining ko'p ekanligini xulosa qilish mumkin. Bundan tashqari, ba'zi fanlardan mutaxassis o'qituvchilar yetishmasligi sababli, boshqa fan o'qituvchisining dars o'tish holati odatga aylangan. Maktablardagi asosiy o'quv-quroli hisoblanmish – darsliklar holati ham

quvonarli deb bo'lmasdi. Chunki, darsliklar o'quvchilar soniga proporsional taqsimlanmagan. 1985-yil oxiriga borib, Zomin tumanidagi mакtablar soni 64 ta bo'lib, ularning 15 tasi 8 yillik maktablar edi [14;13-b]. Mazkur yilda "Umumiy ta'lim va hunar" maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari haqidagi qaror ijrosi yuzasidan Zomin tumanida 1 180 nafar o'quvchiga moslangan Hunar ustaxonali qurilgan. Muammolardan biri, hunar maktablarida bilim olib chiqqan o'quvchilarni ish bilan ta'minlash edi. Vaholanki, yaxshi ish o'rni uchun, albatta, kadr malakali bo'lmog'i talab etilardi. O'quvchilarda kasb-hunar ko'nikmasini shakllantirish va ularni ishga joylash masalasi shunchaki sovxozi rahbarlariga biriktirilgan edi xolos. 1989-1990-yillarda tumandagi 81 ta maktabning 43 tasida bolalar uchun ovqatlanish xonalari bo'limgan. 6 yoshdan bolalarni o'qitish uchun zarur shart-sharoitlar tashkil qilinmagan. "Qayta qurishda – o'qituvchi muhim shaxs" deb, bilgan tuzum vakillari, o'qituvchilar malakasini oshirish, ularga to'lanadigan ish haqi, boshqa jamoat ishlaridan ozod qilish haqida hisobotlar yohud sessiya yig'ilishlarida ham og'iz ochishmagan.

**Natijalar.** XX asrning 80-yillari boshidanoq tuman aholisiga xizmat ko'rsatuvchi madaniy muassasalar faoliyatini yaxshilashga doir bir nechta yig'ilishlar muhokamasi tashkil etilgan. Bu kabi qator tadbirlar natijasi o'laroq, tumandagi mavjud kutubxonalar soni ikkitaga ko'paydi. Ular 20 ming kitob fondiga ega bo'lib, 1 450 nafar kitobxoni bor edi [15;140-b]. Tumanda rus cholg'u asboblar ansambl va o'zbek cholg'u asboblar ansambl tashkil etildi. Bu ikki ansambl birgalikda rahbariyat tomonidan "tuzib berilgan reja"ga muvofiq, konsertlar uyushtirib kelgan. Tuman aholisiga kino xizmatini ko'rsatish madaniy xizmatning yetakchi turlaridan hisoblanardi. Bu borada tuman kinolashtirish idorasi xodimlari oz bo'lsa-da, ma'lum ishlarni amalga oshirganlar. 1982-yil 29-noyabr kuni tuman kinolashtirish idorasi yillik rejani ortig'i bilan bajardi, — deb, hisobot berilgan. Tuman jamoa a'zolari yil oxirigacha 20 ming tomoshabinga ikki ming so'mlik kino xizmati ko'rsatishga so'z berganlar [16;21-b]. Kinolashtirish tizimiga ham sotsialistik mafkura ruhi singdirilgan. Hisobotlar a'lo darajada natijalar bilan qayd etilgani bilan, qator madaniyat o'choqlarining moddiy-texnik bazasi mavjud bo'limgan. Bu kabi maskanlarga qish oylarida isitish tizimi ishlamasligi bois, aholi deyarli kirmagan.

Tumanda 80-yillarda aholini sog'lomlashtirish, jismoniy tarbiya va sport sohalari ham to'g'ri yo'lga qo'yilmagan edi. Tumanning qator sovxoziylarida sport maydonchalari qurilgan, sport bilan shug'ullanuvchilar soni birmuncha ortgan bo'lsa-da, sport maydonchalari zamon talabi darajasida emas edi. Zomin tumani aholisi doimiy qishloq va sanoat sohalarida mehnat bilan bandligi, sog'lom turmush tarzi madaniyati to'laqonli shakllanmaganligi sabab, amaliy natijalar kam bo'lgan. "Chorvador", "Yubiley", "Gorniy" sovxoziylarida bolalar va kattalar uchun hech qanday sport maydonchalar qurilmagan. Boshqa sohalar kabi, sport va sog'lomlashtirish ishlariiga ham faqat, qog'ozda, hisobot uchun e'tibor qaratilgan, xolos.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, yuqorida sohalar: qishloq xo'jaligi, iqtisodiyot, maishiy xizmat ko'rsatish, xalq maorifi, madaniyat va sport yo'nalishlariga XX asrning 80-yillarida sovetscha "sotsialistik mafkura" singdirilgan bo'lib, aholi belgilangan rejani bajarish majburiyati bilan yashagan. Tumanning ixtisoslashuvi va imkoniyatlari asosan dehqonchilik va chorvachilikka moslangani bois, mehnatkashlar deb atalgan xalq hayotining katta qismini dala maydonlarida o'tkazgan. Shaxsiy manfaatlar, erkin turmush tarzida yashash uchun imkoniyat va sharoit bo'limgan. Aholi turmush tarzini yaxshilash haqidagi qaror va qonunlar qog'ozlaridagina aks etgan. Xalq o'zini unutib bo'lsa-da bor-budini, davlatga reja topshirish

uchun sarflagan. Ammo, bu jarayon O'zbekiston mustaqilligiga erishishi bilan barham topdi. Insonlarga avvalo, o'z manfaatlari, oilasi uchun mehnat qilishi, uning evaziga to'la-to'kis erkin yashashi uchun imkoniyatlar ochib berildi. Bir so'z bilan aytganda, mustaqillik nafaqat bir davlatga, undagi bitta tumanga va eng muhimi ularda yashovchi barcha insonlarning hayot tarzida ijobiy, siyosiy o'zgarish bo'lib kirdi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, 1- ro'yxat, 147-ish, 96-varaq.
2. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish -147, 101-varaq.
3. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish -147, 98-varaq.
4. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish -155, 9-varaq.
5. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish -147, 24-varaq.
6. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish -147, 107-varaq.
7. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish -836, 113-varaq.
8. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish - 147, 132-varaq.
9. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish - 146, 16-varaq.
10. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish - 146, 145-varaq.
11. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 392-fond, ro'yxat -8, ish - 58, 337-varaq.
12. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 392-fond, ro'yxat -8, ish - 58, 331-varaq.
13. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 392-fond, ro'yxat -1, ish - 58, 9-varaq.
14. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 31-fond, ro'yxat -1, ish - 814, 13-varaq.
15. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish - 146, 140-varaq.
16. Sharof Rashidov tumani davlat arxivni, 218-fond, ro'yxat -1, ish - 155, 21-varaq.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI**

*Nº 2 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb  
muammolari” elektron jurnali 2020-yil  
6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan  
davlat ro’yxatiga olingan.**

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy  
tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi,  
70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog’lanish uchun telefon:**  
(99) 602-09-84 (telegram).